

BIZ YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI GIYOHVANDLIKKA QARSHIMIZ

Ma'rupova Muslima Sharifjon qizi
Andijon viloyati Yuridik texnikuni
Sud-huquq faoliyati 115-guruh o'quvchisi

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida" Qonuni qabul qilingan. Mazkur qonunga asosan yurtimizda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.*

Kalit so'zlar: *giyohvandlik, vositalar, psixotrop, moddalar, qonun, tadbirlar.*

Giyohvandlik, narkomaniya, bangilik – narkotik moddalarga o'rganib qolish, ruju qilish, aniqrog'i tabiiy yoki sintetik zaharli moddalar (ayrim dori moddalari)ni vaqtincha yoki surunkasiga iste'mol qilish natijasida kelib chiqadigan kasallik holati. Giyohvandlik organizm somatik va ruhiy holatining chuqur o'zgarishiga sabab bo'ladi va giyohvandni tanazzulga olib boradi. Giyohvandlikda o'zini to'xtatib bo'lmaydigan darajada giyohvand moddalarni iste'mol qilish mayli paydo bo'ladi, giyohvand moddaning miqdoriga nisbatan ehtiyoj, ruhiy va jismoniy bog'liqlik ortib boradi. Giyohvandlik asta-sekin boshlanib, surunkali davom etadi. Giyohvand moddalar dastlab xushnudlik, dimog'chog'lik (qarang Eyforiya), xotirjamlik hissini uyg'otib, kayf qildiradi, keyin bora-bora bu kasallikka aylanadi. Giyohvandlik 2 zaylda avj olishi mumkin. Birinchi holda vrach buyurgan va bemorning ruhi hamda kayfiyatini oshirish xususiyatiga ega bo'lgan dorilarni uzoq vaqt va noto'g'ri qabul qilish; og'riq, uyqusizlik va boshqa dardlardan qutilish maqsadida dori miqdori (dozasi)ni oshirib borish; darddan tuzalib doriga unchalik ehtiyoj bo'lmasa ham, uni qabul qilaverish natijasida dorining narkotik ta'siri va miqdori orta borib, pirovardida giyohvand moddaga moyillik kuchayib, u humor qiladigan bo'lib qoladi. Ikkinchi hol ongli ravishda kayf qilish maqsadida giyohvand moddalarga o'rganishdir.

Odatda, narkotik moddalarning salbiy ta'siri turli a'zolarining shikastlanishi, hayot uchun muhim funksional tizimlarning izdan chiqishi, xastalikning psixik va fiziologik alomatlari rivojida ko'rinadi. Narkotik modda iste'mol qilayotgan shaxs asta-sekin psixik jarayonlar faolligini oshiruvchi vositalarsiz xissiy idrok etish layoqatini yo'qotadi. Achinarlisi, hayot lazzatini giyohvand moddalarsiz tasavvur eta olmay qoladi. Bu esa giyohvandlikka chalingan shaxslarni jinoyat ko'chasiga boshlaydi.

Tibbiyot qo'llanmalarida keltirilishicha, qoradori inson organizmiga kirgach, ichaklarga surilib, qorindagi qon aylanish yo'li bilan jigarga yetib boradi. Natijada jigar xujayralari ta'sirlanib, sirroz kasalligini keltirib chiqaradi. Qoradori qayta-qayta iste'mol qilinishi oqibatida jigar sirrozi kuchayib boradi. Jigar kichrayib, qotib qolgach, faoliyati susayadi. Uning xujayralari atrofida yog'lar cho'kib qoladi. Giyohvand moddalarning oqsillari xalaqit bergani uchun yig'ilib qolgan zararli moddalar qon aylanishi bilan markaziy asab tizimiga qadar yetib boradi. Asab xujayralari ishdan chiqib, yaroqsiz holatga kelgach, bemorning ko'rish, eshitish,

hid bilish, fikr yuritish, issiq-sovuqni, qattiq-yumshoqni, shirin-achchiqni sezish qobiliyati yo'qoladi.

Ma'lumki, asab xujayralari hayot moddasi sanalmish protoplazmadan tarkib toptan. Qoradori yetib borishi natijasida u o'z harakatini tezlashtiradi yoki o'ta susaytiradi yoxud tirishish-tortishish holati paydo bo'ladi. Protoplazmaga o'tkazilgan bunday salbiy ta'sirlar kishini giyohvand modda iste'molisiz yashay olmaydigan holatga keltirib qo'yadi. Kashanda asablarini bir oz bo'lsa ham tinchlantirish maqsadida giyohvand moddalarini iste'mol qilishga majbur bo'ladi. Uxlay olmaslik, sustlik, ishtaxasizlik, gamginlik, ko'zning yoshlanishi, titroq, uvishish, tomirlarning burtib chiqishi, yurak o'ynashi, ko'ngil aynishi, qayt qilish kabi xastaliklarga muhtalo bo'ladi. Uning ko'ziga giyohvand modda yoki uni sotib olish uchun kerakli mablag'dan boshqa narsa ko'rinmaydi. Ularni qo'lga kiritish uchun har qanday kabix, ishdan ham qaytmasligi xatarli oqibatlardan darak beradi.

Shu sababli, mahallalar, maktablar boshqa o'quv yurtlari bilan hamkorlikda balog'at yoshidagi o'smirlar bilan o'tkaziladigan muloqotlarning ahamiyati katta. Chunki ilmiy izlanishlarga ko'ra, narkotiklar bilan ilk marotaba tanishish odatda 15-17 yoshlilar orasida boshlanar ekan. O'smirlik davrida inson gormonal jihatdan juda tez rivojlanadi. Bu davrdagi yoshlarning psixo-fiziologik holati dinamik jihatdan nixoyatda jo'shqin o'zgarishlarga boy bo'ladi va o'ziga xos tarzda ifodalanadi. Shu bois ota-onalar, o'qituvchilar va mahxalla ahlining o'smirlardagi bu o'zgarish va alomatlardan boxabar bo'lishlari juda muhim. Ular qo'yidagilar:

-jinsiy bezlarning funksional faoliyati boshlanadi;

-yoshlarda ikkilamchi jinsiy alomatlar paydo bo'ladi;

-o'smir bolalarda ongli ravishda idrok etilmaydigan jinsiy mayl keskinlashadi;

-ro'y berayotgan kimyoviy jarayonlar ta'sirida kayfiyat tez-tez bir qutbdan ikkinchisiga o'zgarib turadi; psixo-fiziologik jihatdan rivojlanishi jadallik nuqtai nazaridan fetal (ona qornidagi embriyning rivojlanishi) hamda yangi tug'ilgan chaqaloqning ikki yoshgacha rivojlanish davrlaridek kechadi;

-o'smirlarning skeleti mushak to'qimalarining rivojlanishiga nisbatan ancha tezroq ro'y beradi. Shu sababdan o'smirlik chog'idagi o'g'il va qizlar birmuncha beo'xshov, nomutanosib qiyofaga ega bo'ladi. Bu hol tabiiy ravishda psixologik nuqtai nazardan ularning o'zligini ifoda etishida muayyan muammolarni yuzaga keltiradi.

Kuzatishlarga ko'ra, aksariyat hollarda narkotik moddalarni iste'mol qilishga kishilarni, ayniqsa, yosh bolalar va o'smirlarni shaxsiy va ijtimoiy hayotda uchraydigan turli muammolar, qiyinchiliklarni yenga olmaslik, shaxsiyatiga past bado berish, o'zi mansub bo'lgan guruhning ta'siriga berilish hollari undar ekan. Bu kabi salbiy holatlarning oldini olish uchun ota-onalar farzandlarining ichki dunyosidan boxabar bo'lib borishlari ayni muddao. Ammo vaqt kech bo'lib, farzandingiz narkotik moddalar iste'mol qilishni boshlagan bo'lsa, o'zingizni yo'qotib qo'ymay, zarur choralarni ko'rishingiz, mutaxassis-narkologga murojaat etish lozim.

Hozirgi kunda jamiyatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi sifatida baholanib qolinayotgan holatlar ham uchrab turibdi. Bizning fikrimizcha, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish va jinoyatchilikka qarshi kurashish nafaqat huquqni muhofaza

qiluvchi organlarning, balki jamoat tashkilotlari, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari, oila va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikdagi faoliyati hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.Eshqobilov, B.Raimjonov/Huquqbuzarliklarning oldini olishning dolzarb masalalari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (2021-yil 12-noyabr). -T.:
2. Toshkent davlat yuridik universitetining Ixtisoslashtirilgan filiali, 2022. -109b. 8. Арипова, А. Х. (2021). Нутқ моҳиятини ташкил этувчи муҳим восита. Scientific progress, 1(6).
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Giyohvandlik>
4. <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1665/1539>
5. <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/2430/2095>
<http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1665/1539>